

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

Sulaymonova Sevinch Sanjar Qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetika tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari muhokama qilinadi. Estetika tarbiyasi bolalarda go'zallikni anglash, san'atni tushunish va estetik his-tuyg'ularni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda estetika tarbiyasini samarali tashkil etish uchun pedagoglarning estetik savodxonligi, ijodiy faoliyatlar, san'at asarlari bilan tanishtirish va ta'lim muassasasining badiiy muhiti muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Maqolada pedagogik shart-sharoitlar va estetik tarbiyaning bolalar shaxsiyatini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim tizimi mutaxassislarining pedagogik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, estetika tarbiyasi, pedagogik shart-sharoitlar, ijodiy faoliyat, san'at, estetik his-tuyg'ular, badiiy muhit, ta'lim tizimi, pedagog, bolalar shaxsiyati, ta'lim samaradorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические условия реализации эстетического воспитания в дошкольных образовательных организациях. Эстетическое воспитание имеет большое значение для развития у детей понимания красоты, понимания искусства, эстетических чувств. Для эффективной организации эстетического воспитания в дошкольном образовании важными факторами выступают эстетическая грамотность педагогов, творческая деятельность, ознакомление с произведениями искусства, художественная среда образовательного учреждения. В статье анализируются педагогические условия и роль эстетического воспитания в развитии личности детей. Данное исследование способствует совершенствованию педагогической деятельности специалистов системы дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, эстетическое воспитание, педагогические условия, творческая деятельность, Искусство, эстетические чувства, художественная среда, система образования, педагог, личность детей, образовательная эффективность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract: *This article discusses the pedagogical conditions for the implementation of aesthetic education in preschool educational organizations. The education of aesthetics is of great importance in the development of children's perception of beauty, understanding art and aesthetic emotions. In order to effectively organize the education of aesthetics in preschool education, the aesthetic literacy of educators, creative activities, acquaintance with works of art and the artistic environment of the educational institution are cited as important factors. The article analyzes pedagogical conditions and the role of aesthetic education in the development of children's personality. This research will help improve the pedagogical activity of specialists of the preschool education system.*

Keywords: *preschool education, aesthetic education, pedagogical conditions, creative activity, art, aesthetic emotions, artistic environment, educational system, educator, children's personality, educational effectiveness.*

Kirish. Mamlakatimizda bolalarni estetik ruhda tarbiyalashga kerakli hamma shart-sharoitlar mavjuddir. Muzey va teatrlar, kutubxona va klublar, kinoteatr va rasmlar galereyalari, takrorlanmas o‘tmish obidalari, qolaversa butun hayot tarzimiz, urf-odatlarimiz ham - barkamol avlodni estetik ruhda tarbiyalash va kamol toptirishga yordam beradigan asosiy vositalardir. O‘zbekistonda demokratik qoidalar asosida rivojlanayotgan maktabgacha ta’lim, bolalarga badiiy ta’lim va estetik tarbiya berishni, go‘zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik did, san’at asarlari, tarix, me’morchilik yodgorliklarni qadrlash, tabiat boyliklarini e‘zozlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda yosh avlodni vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavq olib, estetik tarbiyalashni amalga oshirishi zarur.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev sharofatlari bilan maktabgacha ta’lim tizimida, chunonchi estetik ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor berila boshladi. Negaki ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan har bir yosh avlod dunyoqarashida estetik ruh, estetik didni shakllantirish, yoshlarni go‘zallik, nafosat olamida tarbiyalash ertangi kunimizning, milliy, boqiy an’analarimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Yurtimiz tabiatini yanada yaxshilash uchun, vatanimiz qiyofasini go‘zalligini ta’minlashda, kelajak avlodning estetik madaniyati, estetik didi yuqori o‘rinni egallaydi. Estetik tarbiyani shakllantirish kunning dolzarb masalasiga aylangan, negaki estetik tarbiya shakllanmasdan turib inson go‘zallikni anglay olmasligi yoki bo‘lmasa go‘zallikni qadriga yetmasligi mumkin. Xalqimiz orasida qadimda ma’lum bo‘lgan estetik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o‘rganishimiz, boy tariximizning go‘zalligini anglashimiz, avaylab – asrab qadriga yetmog‘imiz lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ularning estetik tarbiyasini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Estetik zavqlanish kishida mehnat ilhomini yanada jo‘sh urdiradi, insonni ulug‘laydi va uning turmush sharoitini bezaydi. Umuman estetik tarbiya yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan bo‘lishi lozim.

5-Mart, 2025-yil

Estetik tarbiya - bolalarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go’zallikni idrok qilish hamda to’g’ri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, go’zallikka muhabbat uyg’otish hamda hayotiga go’zallik baxsh etuvchi qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetika tarbiyasini samarali amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni to’g’ri tashkil etish zarur. Estetika tarbiyasi jarayonida quyidagi shart-sharoitlar muhim rol o’ynaydi:

Pedagogning estetik savodxonligi

- Pedagoglar o’zining estetik didi, san’atni tushunish va qadrlash qobiliyati orqali bolalarga go’zallikni anglashda yordam berishlari kerak. Ularning san’atga, go’zallikka, badiiy asarlarga bo’lgan hurmat va qiziqishlari bolalarga ham o’z ta’sirini o’tkazadi.

Tarbiyaviy muhit

- Tarbiyaviy muhit bolalarga estetik tajribalarni taqdim etadi, ularning tasavvurini kengaytiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi devor rasmlari, kitoblar, o’yinchoqlar, musiqiy va badiiy asarlar, tabiatni anglash uchun yaratilgan sharoitlar bolalarning estetik tarbiyasini kuchaytiradi.

O’yin va ijodiy faoliyat

- Bolalar uchun o’yin va ijodiy faoliyatlar estetik tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Rasm chizish, kuy qo’shish, raqsga tushish, teatr va drama ijro etish, hikoyalar o’qish kabi faoliyatlar bolalarni estetik jihatdan rivojlantiradi. O’yin jarayonida bolalar o’zlari va dunyo o’rtasida estetik bog’lanishlarni o’rnatadilar.

San’at asarlari bilan tanishtirish

- Estetika tarbiyasini amalga oshirishda san’at asarlarining roli katta. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rassomlik, musiqiy va adabiy asarlarni o’rganish va tahlil qilish orqali san’atni anglashga o’rgatish zarur. Har bir badiiy asar bolaga o’ziga xos estetik tajriba, go’zallikni tushunish va his qilish imkonini beradi.

Estetika tarbiyasini samarali tashkil etish uchun darslar va mashg’ulotlar aniq va rejalashtirilgan tarzda bo’lishi kerak. Estetika bo’yicha o’tkaziladigan darslarda musiqiy, teatr va rassomlik asarlari bilan tanishtirish, ularni tahlil qilish, bolalarga ijodiy ishlarda ishtirok etish imkoniyatini berish lozim. Mashg’ulotlar bolalar uchun estetik tajribalarni kashf etish, o’z his-tuyg’ularini ifodalash va go’zallikni anglash uchun muhim vositadir. Pedagoglar o’zlarining badiiy bilimlarini bolalarga yetkazishda, mashg’ulotlarni qiziqarli va ijodiy tarzda tashkil etishlari kerak.

Estetika tarbiyasining samarali amalga oshirilishi uchun ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilish zarur. Ota-onalar bolalarini san’atga qiziqitirish, ularni badiiy faoliyatlarga jalb qilish, bolalar bilan birgalikda san’at asarlarini ko’rish, musiqa tinglash, kitob o’qish kabi faoliyatlarda ishtirok etishlari kerak. Bunday hamkorlik estetik tarbiya jarayonini samarali va tizimli olib borishga yordam beradi.

Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo’lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go’zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga, shuningdek estetik faoliyatga, voqelikni go’zallik qonun-qoidalari asosida o’zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir.

Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g’oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadi

Estetik mulohaza - shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi.

Estetik baho deganda, shaxsning muayyan hodisa yoki obrazga insoniyat butun tarixiy rivojlanishi jarayonida hosil qilgan va estetik mulohazalarida ifodalangan estetik qoidalar, g’oyalar bilan qiyoslash asosida baho berish tushuniladi.

Estetik idrok bu atrof voqelikdagi buyumlar, hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish, idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo’lgan hissiy va aqliy narsalarning o’zaro aloqasi bilan ifodalanadigan estetik mezonlar bilan qiyoslash jarayonidir.

Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalariga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog’liq bo’lib, turli yo’llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi. U jamiyat estetik madaniyatini turli ma’naviy va moddiy ko’rinishlarda tushunib olishni ta’minlaydi.

Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud.

Jamiyatning estetik madaniyati - insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to’plangan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmui demakdir. Bola shaxsining estetik madaniyati uning madaniy merosini faol, ijodiy o’zlashtirishi natijasida hosil bo’ladi. Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik ong, estetik idrok, bilim, mulohaza, bahs, estetik idealni qamrab oladi.

Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, didi, estetik hissiyotlarida ifodalanadi. Estetik faoliyat ko’nikma, malaka, ijodiy qobiliyatlar mavjudligi bilan tasvirlanadi.

Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g’oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadi, estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi.

Estetik idrok bu atrof voqelikdagi buyumlar, hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish, idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo’lgan hissiy va aqliy narsalarning o’zaro aloqasi bilan ifodalanadigan estetik mezonlar bilan qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go’zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan izohlanadi. To’laqonli estetik idrok estetik tushunchalar va estetik mulohazalarni shakllantirish bilan birgalikda sodir bo’ladi.

Estetik mulohaza - shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi. Shaxsning estetik mulohazasi chuqurligi, takomillashganligi,

murakkabligi, yuqori yoki pastligi bilan ajralib turadi. Estetik mulohaza darajasi shaxsning xulq-atvori va bilim saviyasiga, estetik tajribasiga bog‘liqdir.

Estetik baho deganda, shaxsning muayyan hodisa yoki obrazga insoniyat butun tarixiy rivojlanishi jarayonida hosil qilgan va estetik mulohazalarida ifodalangan estetik qoidalar, g‘oyalar bilan qiyoslash asosida baho berish tushuniladi. Estetik baho tevarak-atrof, voqea-hodisalarga, san‘at asarlaridagi go‘zallik yoki qabihlik, dahshatlilik yoki hazil-mutoyibaga moyillik, hazilkashlik kabi kategoriyalarga tayanib, ularning estetik qimmati obrazli aks ettirishning chuqurligi va yaxlitligi, muallif ijodiy usulining yorqinligi haqidagi fikrlarni qamrab oladi. Estetik baho berishda shaxsning ijtimoiy yashash tuzumi, ijtimoiy kelib chiqishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Estetik ideal bu shaxsning tabiat, jamiyat va san‘atdagi maqsad tarzida idrok etadigan takomillashgan go‘zallik haqidagi ijtimoiy bahosining aks etishidir. Shunga ko‘ra, estetik idealning muhim belgisi shaxsning dunyoqarash xususiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Estetik ideal uchun estetik madaniyat hodisasi sifatida faqat uning o‘lchovi tarzida emas, balki undovchi tarzidagi muhim xususiyat bo‘lib qoladi.

Estetik ehtiyoj deb, shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga badiiy faoliyatning aniq bir turiga yoki uning xilma-xil turlariga undovchi subyektiv omillariga aytiladi. Estetik ehtiyojlar estetik axborotga ehtiyojni, go‘zallik haqidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilishga, estetik zavq bergan narsani ko‘proq idrok etishga intilishda murosasiz bo‘lish va uni butkul yo‘qotishga harakat qilishda, aniq bir san‘at asari, uning muallifi haqidagi yangiliklarni bilishga intilishda ifodalanadi.

Estetik qiziqish - shaxsning estetik faoliyatida, voqelik va san‘at asarlarini estetik jihatdan ifodalashda ko‘rinadi. Estetik qiziqishning asosiy belgilari bolalarda estetik faoliyatga intilishi, o‘zi yoqtirgan san‘at asarlarini yig‘ib, to‘plab borishi, ularni takror-takror o‘qib, idrok etishi, ular haqida fikr bildirishga intilishi, boshqalarning shu masalaga doir fikrini bilishga qiziqish, muayyan san‘atkor, janr, yo‘nalish kabilarni afzal ko‘rishda namoyon bo‘luvchi, tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Masalan, bolalar o‘zlarini qiziqtirgan san‘at ustasining rasmlarini, asarlarini to‘playdilar, qayta-qayta ko‘rib chiqadilar. Bolalar estetik qiziqishlarining kengligi, chuqurligi, barqaror yoki beqarorligi bilan ajralib turadilar. Bu ularning faolligi darajalarini va atrof hayotga estetik hamda amaliy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Boladagi estetik qiziqish darajasi pedagogik ta’sir natijasida yuqoriga ko‘tarilishi yoki susayishi ham mumkin. Estetik qiziqishlar bolada estetik ehtiyojni tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Estetik did shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladigan murakkab hodisadir. Did o‘z tabiatiga ko‘ra faqat shaxsga oid ammo, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmui bo‘lganligi uchun, u estetik baholash mezonini bo‘lib xizmat qiluvchi ham subyektiv, ham obyektiv me’yorlarni o‘zida birlashtiradi. Baho, buyum yoki hodisaning estetik mohiyatini egallash jarayoniga taalluqli bo‘lib, did esa shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan estetik munosabat bildirishida ifodalanadi. Estetik did estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig‘indisi orqali shakllanadi hamda shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Estetik tuyg‘u bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini subyektiv boshdan kechirishdir. Estetik tuyg‘u bolaning mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunidan ma’naviy lazzatlanishda yoki aksincha nafratlanishda ifodalanadi. Estetik his-tuyg‘u inson aql-zakovatiga ko‘ra mazmunli, murakkab, chuqur va xilma-xil bo‘ladi. Estetik his-tuyg‘u, chuqur va barqaror estetik qiziqishlarni hosil qilishi mumkin. Bolada estetik idrok, bilim, mulohazalar, baho, ideal, his-tuyg‘u, qiziqish, ehtiyoj va estetik faoliyatga aylanadi, estetik did birligi, uni estetik faol bo‘lishga, o‘z faoliyatini namoyon qilishga tayyorlaydi. U asta-sekin tevarak-atrofni go‘zallik qonunlari asosida o‘zgartirishga, go‘zallik yaratishga harakat qiladi, chunki inson go‘zallikni nafaqat mushohada etadi, balki uni yaratadi ham. Estetik jihatdan tarbiyalangan odam hayotni go‘zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo‘ladi. Uning estetik faolligi hayotda go‘zallik yaratishda egallangan estetik ko‘nikmalarida: chiroyli, bejirim kiyinishda, madaniy muomalasida, o‘zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’limda estetika tarbiyasining amalga oshirilishi, bolalarning estetik rivojlanishiga, tasavvurini kengaytirishga va ijodiy salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Estetika tarbiyasini tashkil etish uchun pedagoglar, ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik, estetik savodxonlik, ijodiy faoliyatlar, shuningdek, badiiy asarlar bilan tanishtirish kabi pedagogik shart-sharoitlar zarur. Ushbu shart-sharoitlar bolalar uchun go‘zallikni anglash, san’atlarga qiziqish va o‘z estetik tasavvurlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim tizimida estetika tarbiyasini samarali amalga oshirish bolalarning shaxsiyati, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularga go‘zallikni anglashni o‘rgatishning muhim vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Umarov, R.Karimov. “Estetika asoslari”. Toshkent “SHARQ” nashriyoti. 2004-y.
2. L.A. Muhammadjonova. Etika va estetika fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2017. – B. 108.
3. Numondjonovna, D. G. (2021). The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
4. Numondjonovna, D. G. (2022). The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 54-57.
5. Numondjonovna, D. G. (2021). The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(7), 28-31.
6. Davranova Gulbahor, N. (2022). Advantages of using modern information technologies in teaching russian language for primary school students. *American journal of social and humanitarian research*, 3(1), 333-338.
7. Davranova, G. N. (2022). Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(6), 73-78.

5-Mart, 2025-yil

8. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 144-146.
9. Davranova, G. N. (2023, January). THE DEVELOPMENT OF PUPILS’SPEECH IN RUSSIAN LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 1, pp. 147-154).
10. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 363-367.
11. Numondjonovna, D. G. (2024). SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA‘LIMNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 197-202.
12. Numondjonovna, D. G. (2024). FORM, METHOD, TOOLS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Miasto Przyszłości*, 47, 495-499.

Science
Publication